

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL
IYUN/6-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING LIKVIDLILIGINI TA'MINLASH MASALALARI.....	10
Bauyetdinov M.J.	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH STRATEGIYASI.....	18
Usmanova Zumrad Islamovna, Xasanova Yulduz Kayumovna	
TOKLI O'TKAZGICHLARDA MAGNIT MAYDON INDUKSIYASINING NAZARIY TAHLILI	23
O'ngboyev Anvar, Umarov Uyg'un, Dusiyorov Jaxongir, Jonimqulov Mirtemur	
QISHLOQ XO'JALIGIDA SUV RESURSLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	30
Akbarova Shaxnoza Yakub qizi	



QISHLOQ XO'JALIGIDA SUV RESURSLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Akbarova Shaxnoza Yakub qizi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti o'qituvchisi

E-mail: sh.akbarova1996@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada qishloq xo'jaligida suv resurslarini boshqarishning innovatsion mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy-uslubiy asoslari, iqtisodiy jihatlari hamda amaliy yo'nalishlari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida suv resurslaridan foydalanish samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar, jumladan, iqlim o'zgarishi, suv tanqisligi, irrigatsiya infratuzilmasining texnik holati va raqamli texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, suv resurslarini boshqarishda zamonaviy innovatsion yondashuvlar, suv tejovchi texnologiyalar va raqamli monitoring tizimlarining iqtisodiy samaradorlikka ta'siri baholangan. Tadqiqot natijasida suv boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish, resurslardan oqilona foydalanishni rag'batlantirish hamda agrar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: suv resurslari, suv boshqaruvi, innovatsion mexanizmlar, qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti, irrigatsiya tizimlari, suv tejovchi texnologiyalar, raqamlashtirish, iqtisodiy samaradorlik, barqaror rivojlanish.

Аннотация. В данной статье исследованы теоретико-методологические основы совершенствования инновационных механизмов управления водными ресурсами в сельском хозяйстве, а также их экономические аспекты и практические направления реализации. Проанализированы основные факторы, влияющие на эффективность использования водных ресурсов, включая изменение климата, дефицит воды, техническое состояние ирригационной инфраструктуры и возможности внедрения цифровых технологий. Особое внимание уделено оценке влияния современных инновационных подходов, водосберегающих технологий и систем цифрового мониторинга на повышение экономической эффективности сельскохозяйственного производства. По результатам исследования разработаны практические рекомендации по модернизации системы управления водными ресурсами, рациональному использованию воды и повышению эффективности аграрного производства.

Ключевые слова: водные ресурсы, управление водными ресурсами, инновационные механизмы, экономика сельского хозяйства, ирригационные системы, водосберегающие технологии, цифровизация, экономическая эффективность, устойчивое развитие.

Abstract. This article examines the theoretical and methodological foundations, economic aspects, and practical directions for improving innovative mechanisms of water resource management in agriculture. The study analyzes the key factors affecting water use efficiency, including climate change, water scarcity, the technical condition of irrigation infrastructure, and the opportunities for implementing digital technologies. Particular attention is given to assessing the impact of modern innovative approaches, water-saving technologies, and digital monitoring systems on agricultural economic efficiency. Based on the research findings, practical recommendations have been developed to modernize water management systems, promote rational water use, and enhance the efficiency and sustainability of agricultural production.

Keywords: water resources, water management, innovative mechanisms, agricultural economics, irrigation systems, water-saving technologies, digitalization, economic efficiency, sustainable development.

KIRISH

Bugungi kunda suv tanqisligi global miqyosda XXI asrning eng muhim ekologik va iqtisodiy muammolaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Iqlim o'zgarishi, aholi sonining ortib borishi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining kengayishi hamda transchegaraviy suv resurslaridan foydalanishdagi murakkab jarayonlar suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish zaruratini kuchaytirmoqda.¹

Ma'lumki, dunyo bo'yicha iste'mol qilinayotgan chuchuk suv resurslarining asosiy qismi qishloq xo'jaligi tarmog'iga to'g'ri keladi. Shu sababli agrar sektorda suvdan oqilona foydalanish va boshqaruv samaradorligini oshirish oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq aholisi farovonligini yuksaltirish hamda ekologik muvozanatni saqlashning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5-son qarori, 05.01.2024.



O'zbekiston sharoitida, xususan, suv resurslari cheklangan Qashqadaryo viloyatida ushbu masala alohida ahamiyat kasb etadi. Hududda sug'oriladigan yerlar maydoni mavjud suv imkoniyatlariga nisbatan yuqori bo'lib, suv resurslarini boshqarishning innovatsion mexanizmlarini joriy etishni taqozo etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qishloq xo'jaligida suv resurslarini boshqarish va ulardan samarali foydalanish masalalari iqtisodiyot, ekologiya va agrar siyosatning muhim ilmiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Suv taqchilligi kuchayib borayotgan sharoitda ushbu masala xalqaro va mintaqaviy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishiga aylangan. Suv xo'jaligi tizimida innovatsion yondashuvlarni joriy etish va ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri Z. S. Shoxujaeva, A. S. Eshev, N. O'. Murodova hamda F. S. Temirova tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilgan.² Mualliflar suv boshqaruvi tizimiga innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish suv resurslaridan foydalanish natijadorligini oshirishning muhim omillaridan biri ekanligini asoslab berganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot qishloq xo'jaligida suv resurslarini boshqarishning innovatsion mexanizmlarini takomillashtirishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot davomida iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil, guruhlash, tizimli yondashuv va iqtisodiy-matematik modellashtirish usullaridan kompleks foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini suv resurslarini boshqarish samaradorligini baholash, mavjud muammolarni aniqlash va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini prognozlash tamoyillari tashkil etadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qashqadaryo viloyatida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi ko'p jihatdan sug'orish suvlari bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq. Viloyat suv resurslari cheklangan hududlardan biri bo'lib, suv boshqaruvi samaradorligini oshirish agrar sektor rivojlanishining ustuvor vazifalaridan hisoblanadi.³

O'tkazilgan tahlillar natijasida hududda quyidagi muammolar mavjudligi aniqlandi:

- irrigatsiya tizimlarini texnik jihatdan modernizatsiya qilish zarurati;
- ochiq sug'orish tarmoqlarida suv yo'qotishlarining yuqoriligi;
- yerlarning meliorativ holatini yaxshilash zarurati;
- suv hisobini yuritish va monitoring qilish tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi.

Shu munosabat bilan suv resurslarini boshqarish samaradorligini baholash maqsadida "Suv boshqaruvi samaradorligi indeksi" (SBSI) taklif etildi. Mazkur indeks quyidagi mezonlarga asoslanadi:

- ekinlar hosildorligi;
- suv sarfi darajasi;
- suv tejoychi texnologiyalarning joriy etilishi;
- yerlarning meliorativ holati;
- raqamli monitoring tizimlaridan foydalanish darajasi.

Indeks 0 dan 1 gacha bo'lgan oraliqda baholanib, suv boshqaruvi samaradorligini kompleks aniqlash imkonini beradi.

Innovatsion texnologiyalar va ularning iqtisodiy samaradorligi

Qishloq xo'jaligida tomchilatib sug'orish, yomg'irilatib sug'orish, masofaviy monitoring va intellektual boshqaruv tizimlari kabi innovatsion texnologiyalarni qo'llash suv sarfini sezilarli darajada kamaytiradi. Shu bilan birga:

- hosildorlik oshadi;
- energiya va o'g'it xarajatlari qisqaradi;
- suvdan foydalanish ustidan nazorat kuchayadi;
- ekologik holat yaxshilanadi.

2030-yilgacha prognoz ko'rsatkichlari

Iqtisodiy-matematik modellashtirish natijalariga ko'ra, suv boshqaruvining innovatsion mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish orqali 2030-yilgacha quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- paxta hosildorligining o'rtacha yillik o'sishi – 4,0–4,3 %;
- g'alla hosildorligining o'rtacha yillik o'sishi – 2,5–3,0 %;

2 Shoxujaeva Z.S., Eshev A.S., Murodova N.O', Temirova F.S. *Changes, Problems and Solutions in the Water System in the Connections of Innovative Economy*. AIP Conference Proceedings, 2023.

3 Akbarova Sh. *Suv taqchilligi sharoitida sohani raqamli texnologiyalar asosida boshqarish*. Agroiqtisodiyot, 2025.



- suv sarfining bosqichma-bosqich qisqarishi;
- suv resurslaridan foydalanish samaradorligining sezilarli yaxshilanishi.

Ushbu natijalar suv tejevchi texnologiyalarni keng qo'llash, raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish hamda iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bilan chambarchas bog'liqdir.⁴

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari qishloq xo'jaligida suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish iqtisodiy, ekologik va institutsional omillar uyg'unligida amalga oshirilishi lozimligini ko'rsatdi. Suv tanqisligi sharoitida innovatsion boshqaruv mexanizmlarini joriy etish agrar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Tahlillar asosida quyidagi asosiy muammolar aniqlandi:

- irrigatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilish zarurati;
- suv yo'qotishlarini kamaytirish zarurati;
- raqamli monitoring tizimlarining yetarli rivojlanmaganligi;
- suv tejevchi texnologiyalarni joriy etish ko'lamining cheklanganligi;
- iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmaganligi.

Tadqiqot doirasida taklif etilgan "Suv boshqaruvi samaradorligi indeksi" suv resurslarini boshqarish natijadorligini baholashning amaliy vositasi sifatida xizmat qilishi mumkin. Umuman olganda, suv resurslarini boshqarish tizimini modernizatsiya qilish, raqamlashtirish va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish O'zbekiston agrar sektorining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari suv tanqisligi kuzatiladigan hududlarda suv boshqaruvi samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-apreldagi "Quyida bo'g'ida suv resurslarini boshqarish samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 196-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-5969590>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi "Quyida bo'g'ida suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5-son qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-6734972>
3. Shokhujayeva Z., Normamatov I. Scientific and practical basis of assessing the impact of water-saving technologies on crop productivity and product quality // E3S Web of Conferences. – 2023. – Vol. 463. – Article No. 02036. – P. 1–7. DOI: 10.1051/e3sconf/202346302036.
4. Akbarova Sh. Suv tanqisligi sharoitida sohani raqamli texnologiyalar asosida boshqarish (xorij tajribasi) // Agroiqtisodiyot ilmiy-amaliy agroiqtisodiy jurnal. – 2025. – № 3. – B. 92–94.
5. Shokhujayeva Z., Mamanazarova N., Mirjamilova H. Ways of efficient use of water in conditions of water resources shortage // E3S Web of Conferences. – 2023. – Vol. 463. – Article No. 02035. – P. 1–12. DOI: 10.1051/e3sconf/202346302035.
6. Shokhujayeva Z. S., Eshev A. S., Murodova N. O., Temirova F. S. Changes, problems and solutions in the water system in the connections of innovative economy // AIP Conference Proceedings. – 2023. – Vol. 2612. – Article No. 050031. – P. 050031-1–050031-8. DOI: 10.1063/5.0113640.
7. Akbarova Sh. Importance of Investing in the Introduction of Water-Saving Digital Technologies in Agriculture // International Journal of Biological Engineering and Agriculture. – 2023. – Vol. 2, No. 5. – P. 17–22.
8. Akbarova Sh. Ways to improve the implementation of water-saving digital technologies in agriculture // Gospodarka i Innowacje. – 2023. – Vol. 35. – P. 370–376.
9. Shokhujayeva Z. S., Mirjamilova H. N. Innovative processes in the water sector and factors influencing their development // Asian Journal of Research in Business Economics and Management. – 2022. – Vol. 12, No. 5. – P. 18–27. DOI: 10.5958/2249-7307.2022.00048.2.
10. Kurbonov A. B., Shoxo'jaeva Z. S. Sustainable Development of the Agrarian Sector Depends on the Efficient Use of Water Resources // International Journal of Engineering and Advanced Technology. – 2019. – Vol. 8, Issue 6. – P. 5123–5126. DOI: 10.35940/ijeat.F9565.088619.

4 Akbarova Sh. *Importance of Investing in the Introduction of Water-Saving Digital Technologies in Agriculture*. International Journal of Biological Engineering and Agriculture, 2023.

muhandislik

& iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100